

XOJA HIKOYATLARIDA HASADGO‘YLIK VA XIYONATKORLIK OQIBATI

Akbarova Salimaxon Abduraxim qizi,

Andijon davlat universiteti

Adabiyotshunoslik yo‘nalishi 2-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: Mamajonov Zokirjon,

Annotatsiya. Ushbu matnda Xojaning kichik hajmdagi hikoyatlari orqali hasad va xiyonat kabi illatlar qoralanadi. Hasad inson qalbida paydo bo‘ladigan yomon illatlardan biri bo‘lib, u nafaqat boshqalarga, balki eng avvalo kishining o‘ziga zarar keltiradi. Asarda xiyonat tufayli yuzaga keladigan nizolar, adovat va ruhiy iztiroblar tasvirlanadi. Shuningdek, Xojaning hikoyatiga o‘xshash syujetlar parallel holatda o‘rganilib, hikoyatdagi mazmun to‘ldiriladi. Hasadgo‘ylik hasadchini kuydiruvchi o‘t ekanligi, xiyonatning esa kechirilmas gunohlardan ekanligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: “Miftoh ul-adl”, “Gulzor”, “Masnaviy”, Mahmud G‘aznaviy, Ayozi, hasad, xiyonat, illat, adovat, nizolar, ruhiy iztirob, insoniy fazilatlar, bag‘rikenglik, poklik, axloq, tarbiya.

Аннотация. В данном тексте освещается пагубное влияние зависти на жизнь человека. Зависть - один из худших пороков, зарождающихся в человеческой душе, который вредит не только окружающим, но прежде всего самому человеку. В тексте описываются конфликты, вражда и душевные страдания, возникающие из-за зависти. Также подчёркивается необходимость избавляться от зависти, учиться жить с чистым сердцем и радоваться успехам других.

Ключевые слова: зависть, порок, вражда, конфликты, душевные страдания, человеческие добродетели, великодушие, чистота, нравственность, воспитание.

Abstract. This text explores the negative impact of envy on human life. Envy is one of the vices that arise in the human heart, and it harms not only others but, first and foremost, the individual themselves. The work describes the conflicts, animosity, and psychological suffering caused by envy. It also emphasizes the importance of overcoming envy, living with a pure heart, and learning to rejoice in the achievements of others.

Keywords: envy, vice, animosity, conflict, psychological suffering, human virtues, tolerance, purity, morality, upbringing.

Kirish. “Miftoh ul-adl”da shunday bir hikoyat keltirilganki, bu hikoyat orqali hasadning o‘z egasini, ya’ni hasadgo‘yni yondirib ado qiladigan o‘t ekanligi yoritilgan. “Sulton Mahmud va Ayozi” haqidagi hikoyatning qisqacha bayoni quyidagicha:

Sulton Mahmud G‘aznaviy Ayozi barchadan ko‘p yaxshi ko‘rar edi. Bu holat saroy vazirlaridan birida hasad uyg‘otadi. Ayozi Sultonning og‘zining isiga hech chidab bo‘lmasligini, u gapirmoqchi bo‘lsa og‘iz-burnimni yopib olaman deganini aytadi. Sulton juda hafa bo‘ladi, lekin oldin vazirning gapi rost ekanligini tekshirib ko‘rmoqchi bo‘ladi. Vazir Ayozi uyiga taklif etib sarimsoq ko‘p solib pishirilgan tumoch bilan mehmon qiladi. Ayozi taomni yeb, sulton huzuriga yo‘l oladi. Sarimsoq hidi sultonga noqulaylik tug‘dirmasin deb, og‘zini yengi bilan yopib kiradi. Sulton vazirning gapi rost ekan degan gumonga boradi.

Shundan so‘ng sulton Ayozi muhrlangan xat berib, uni bir shaharga olib borishini va ming tilla tanga olib kelishini buyuradi. Xatda esa xatni olib borgan kishini o‘ldirish haqida buyruq bor edi. Yo‘lda vazir Ayozi qayoqqa ketayotganini so‘rab, o‘sha yerga

men boray, tillalarni men olib kelay, deb iltimos qilib yo'lga tushadi. Natijada vazirning o'zi qatl etiladi.

Adabiyotlar tahlili. Sharq mumtoz adabiyotini olamizmi yoki xalq ertaklarinimi hukmdor va uning yaqin kishisi va ularga hasad qiluvchi shaxs kabi uchliklarga ko'p duch kelamiz. Sulton Mahmud va Ayozi xos haqidagi rivoyat va hikoyatlarda sadoqat, hasad, tuhmat, va adolat masalalari badiiy talqin etiladi. Tanishganimiz hikoyatda ham saroy muhitidagi ichki raqobat, amaldorlar o'rtasidagi hasad, ig'vo kabi illatlar tasvirlangan. Olim Davlatovning "Saddi Iskandariy"da Mahmud G'aznaviy siymosi nomli maqolasida Sulton Mahmud va Ayozi haqida ham to'xtalib o'tgan: "G'azna sultonining Abunajm Ayozi ibn Uymoq ismli sahibjamol quli mavqe va e'tibor jihatidan podshoh oldida hammadan baland mavqeda edi. Shoh uni juda yaxshi ko'rardi. Shoh va xodim o'rtasidagi muhabbat ko'p qissa va dostonlar uchun ilhom manbai bo'lib xizmat qilgan".

Xususan, Jaloliddin Rumiyning "Masnaviy" sida shunday hikoya keltirilgan:

Sulton Mahmud G'aznaviy bir kuni ovga chiqadi. Kiyik ortidan quvib Turkman qishlog'iga borib qoladi. Terga botib, bir eshikni qoqib, eshik ochgan ko'rkam yigitdan suv so'raydi. Yigit sultonni taniydi va uyga kirishini so'raydi. Uyda suv yo'qligini, og'asi buloqqa suv uchun ketganini, kelib qolishini aytib, sultonni gapga tutadi. Birozdan so'ng kosada suv keltiradi. Sulton: uyda suv yo'q degan edingku, deb so'raydi. Shunda yigit: "Sultonim, mendan suv so'ragan vaqtingizda juda terlagan edingiz, haroratingiz baland edi. Agar o'sha vaqtda sizga suv bersam, sog'lig'ingizga zarar bo'lardi. Sizning haroratingiz biroz tushishini kutdim", - deya javob beradi.

Bu javob sultonga xush yoqadi. Uni onasining roziligi bilan saroyga olib ketadi. Yigitning ismi Ayozi edi...

Hikoyatlardan anglashiladiki, Ayozi nafaqat chiroyli husni bilan, balki chiroyli xulqi, aql-zakovati, fahm-farosati, oqilligi bilan ham Sulton Mahmud ko'nglidan joy olgan shaxs bo'lgan ekan. Mana shu yaqinlik esa saroy vazirlarida hasad uyg'otadi. Xoja hikoyatda hasadning ma'naviy tubanlikka olib borishini va saroy muhitidagi ma'naviy inqiroz unsurlarini ko'rsatib bergan. Hikoyatda so'zlar ham, gapning grammatik qurilishi ham sodda bo'lib, bu- tushunilishni yana ham yengillashtirgan. Asarda qahramonlarning ichki kechinmalari ixcham, ammo aniq ifodalanadi. Sultonning gumoni, Ayozning ixlosi va vazirning hasadi diologlar orqali ochiladi. Xat vositasida berilgan yashirin hukm syujetning kulminatsion nuqtasini tashkil qiladi. Ayozning soddaligi va mehribonligi tufayli xat vazir qo'lga o'tadi va tuhmatchi o'zi bilmagan holda o'zi qazigan chohga qulaydi. Aynan mana shu syujet kitobxonni quvontiradi, natijadan mamnun bo'ladi. Asar orqali muallif adolatning muqarrarliligi va ichki poklikning ustuvorligini badiiy jihatdan asoslab beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda tarixiy-filologik va matnshunoslik yondashuvlari asosida Xoja hikoyatlarida hasadgo'ylik va xiyonatkorlik motivlari tahlil

qilindi. Asosiy manba sifatida “Miftoh ul-adl” va “Gulzor” asarlaridagi hikoyatlar tanlab olinib, ulardagi syujet, obrazlar tizimi va axloqiy mazmun izchil o‘rganildi.

Shuningdek, tavsifiy-analitik va qiyosiy tahlil metodlari qo‘llanib, Xoja hikoyatlari boshqa mumtoz asarlar (Rumiyning “Masnaviy”, Nizomiy va Navoiy asarlari) bilan solishtirildi. Bu yondashuv hikoyatlarning g‘oyaviy-badiiy o‘ziga xosligini aniqlashga imkon berdi.

Tahlillar va natijalar. Hasad – barcha gunohlarning onasi. Yer yuzidagi birinchi qotillik ham hasad sababli ro‘y bergan. Qobil ukasi Hobilni hasaddan o‘ldiradi. Hasad insonni g‘iybatga, chaqimchilikka, kibrga, ig‘voga va hatto, qotillika undaydi. Hasad shunchalik xavfli ekanidan Alloh taolo hasadchining hasadidan panoh so‘rashga buyurgan. Qur‘oni Karimda Falaq surasining beshinchi oyatida ham hasaddan panoh so‘rash kerakligi aytiladi:”va hasad qigan hasadchining yomonligidan panoh so‘rayman”. Tanishganimiz Xoja hikoyatida ham hasadning o‘z egasini kuydiruvchi o‘t ekanligi badiiy ifodasini topgan.

Xoja hikoyatlarida xiyonatkorlar taqdiri haqida:

“Miftoh ul-adl” va “Gulzor” asarlari tarkibidagi ayrim hikoyatlarda xiyonatning qandayin yomon illat ekanligi, oqil kishilar xiyonatkorlarga qanday munosabatda bo‘lganliklari bayon etilgan. “Iskandar Zulqarnayn va Doro” haqidagi hikoyatda ham xoinlik oqibatlarini yoritilgan. Hikoyatning qisqacha mazmuni quyidagicha:

Kunlardan bir kun Iskandar Zulqarnayn Hamadon shahridan xiroj talab qiladi. Hamadon begi Doro xiroj bermasligini aytadi. Iskandar Doroga qarshi urush qiladi, ammo yenga olmaydi. Shunda Iskandar hiyla yo‘liga o‘tadi. Doroning ishonchli kishisini aldab, o‘ziga og‘diradi, xojasining boshi evaziga yuqori mansablar va‘da qiladi. Ikki lashkar Doroning boshini Iskandarga olib keladi. Iskandar esa Doroni izzat-hurmat bilan ko‘mishni, qabr ustiga dor yasab ikki lashkarni osishni amr qiladi. Shuncha yillar yonidan joy bergan xojasiga vafo qilmagan qullarning o‘rni dor ekanligini aytadi.

Ushbu hikoyatda xoinlik, sotqinlik, manfaatparastlik va xiyonat kabi illatlar qoralangan. Asar syujeti sodda bo‘lishiga qaramay, unda chuqur falsafiy-axloqiy mazmun mujassam. Hikoyani o‘qigan onda hayolimda bir she‘r aylanaverdi.

Bu Shavkat Rahmon qalamiga mansub “Jangda o‘lgan emas biror bahodir” she‘ri:

Jangda o‘lgan emas biror bahodir,
Bari halok bo‘lgan xiyonatlardan.
Toshday uxlaganda to‘shlarin ochib
Yo zahar qo‘shilgan ziyofatlardan.
Biror asotirda bahodirlarni
Hattoki yuz boshli ajdar yemagan.
Ming bir sinoatli yalmog‘izlar ham
Tog‘larni o‘ynagan devlar yengmagan.

Shunday bo‘lib kelgan azal-u azal
Mana shu jafokash ko‘hna Vatanda
Har gal bahodirlar yiqilar ekan,
Kurakka sanchilgan nomard tig‘idan
Qayta tirilganday bo‘lardi nogoh
Har bir bolakayning qorachig‘ida.
Ishongil, hech qachon seni aldamas
Sofdil elatlarning asotirlari,

Bari halok bo'lgan xiyonatlardan,
Bariga orqadan sanchilgan xanjar.

Birorta bahodir o'lganmas jangda,
Qo'rqoqlar o'ldirgan bahodirlarni.

Hikoyat Iskandar va Doro bilan bog'liq tarixiy haqiqatga tayanadi. Qadimgi Eronda ahamoniylar sulolasiga mansub bo'lgan podshohlar: Doro I, Doro II va Doro III lar yashab o'tgan. Aynan Doro III Iskandar Zulqarnayn bilan to'qnashgan. Ikki o'rtada bo'lgan urushda Doro III yengilib Sharqiy Eronga qochgan. O'z amaldori, Baqtriya satrapi Bess tomonidan o'ldirilgan. Mana shu tarixiy voqea ko'plab badiiy asarlarga manbaa bo'lib xizmat qilgan. Nizomiy Ganjaviyning "Iskandarnoma", Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy", Nizomulmulkning "Siyosatnoma" asarlarida shu kabi epizodlar mavjud. Albatta, har birining bayon usuli va voqealar rivoji bir-biridan farqli. Hikoyat ham turlicha yakunlangan. Xususan, Nizomiy va Navoiy nazmda bitgan va tarixiy haqiqatga yaqin. Xalq og'zaki ijodida ham shu mavzudagi ertaklar mavjud bo'lib, undagi voqealar rivoji Nizomiy va Navoiy asarlariga, bayon qilish tarzi va tili Xoja hikoyatiga yaqin. Ko'rinib turibdiki, Xoja xalq og'zaki ijodidan ham, nodir asarlardan ham birdek foydalanib, barcha davrlar va zamonlar uchun birdek ahamiyatli, o'lmas asar yaratgan. Aslida Iskandar soliq to'lashni to'xtatadi va Doro bilan urushadi. Xoja hikoyatida esa aksi. Iskandar Zulqarnayn raqibini yengish uchun hech narsadan qaytmaydi. Garchi g'irromlik bo'lsa ham vazirlari aytgan maslahatga ko'nadi. Aldovlarga ishonib, manfaati yo'lida o'z xojasini o'dirishgacha borgan manfur kishilar uchun Iskandar eng adolatli jazoni qo'lladi: "... bu lashkarda sizlarga yuqori o'run berurman, - dor turur, - man shartimda tururman. Sizlarning jazoyingiz bu turur".

Hukmdorga xiyonat xalqqa xiyonat, Vatanga xiyonat demakdir. Har qaysi zamonda ham xoinning yuzi qoradir. O'sib kelayotgan yosh avlodni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, milliy qadryatlarni har narsadan ustun qo'yishni o'rgatish har birimiz uchun muhim vazifa. Chunki bir davlatni dushman emas, o'z ichidan chiqqan xoinlari vayron qilganiga tarix ko'p marta guvoh bo'lgan.

"Miftoh ul-adl" tarkibiga kiruvchi navbatdagi "Bahrom go'r va vazir Rostiravshan" haqidagi hikoyatga e'tiborimizni qaratsak:

Podshoh Bahrom go'r ichkilikka berilib, ishrat qilib kun o'tkazar edi. Butun davlat ishlarini vaziri Rostiravshanga topshirib qo'ygan edi. Uning zulmidan xaloyiq boshqa yurtlarga bosh olib keta boshladi. Bir kuni bir elchi kelib Bahrom go'rga bir bekning bosh ko'tarib, cherik tortib kelayotganini aytadi. Xazinada moli, qarshi kurashishga lashkari qomaganligini ko'rgach, o'zi yog'iyga qarshi yo'lga chiqadi. Yo'lda bir cho'pon chodirining eshigida itni dorga osib qo'yganini ko'radi. Hayron bo'lib sababini so'raydi. Shunda cho'pon u it o'ziniki ekanligini, qo'ylarini ertalab o'tloqqa, kechqurun qo'noqqa olib kelib boqishini aytadi. Lekin uch-to'rt kundirki, qo'ylarning soni kamayib borar emish. Cho'pon borib tekshirsa, it bir moda bo'ri bilan topishib olganini ko'radi va boshqa itlarga ham saboq bo'lsin deb itni dorga osganligini aytadi. Cho'pon aytib bergan voqea

podshohga dars bo'ladi vaziridan shubhalana boshlaydi. U vazirni tekshirish uchun zindondagilarni so'roq qiladi. Ma'lum bo'ladiki, vazir nohaq odamlarni qamab, mol-mulkini tortib olgan. Vazirning uyidan ham uning xiyonatini tasdiqlovchi maktub topiladi. Vazirni dorga osadilar.

Ushbu hikoyat quyidagicha xulosa bilan yakunlanadi:

...sulton yo bek bo'lg'on kishi vazirig'a ishonib g'ofil bo'lmoq kerakmas. Va yana podshoh yo bek bo'lg'on kishi bir navkarni bir shaharga beklikka yuborsa, yashirin va yana bir g'arazsiz kishini ortincha yubormak kerak, adl qilurmi yo zulm qilurmu...

Ushbu hikoyatda xiyonatkor vazir obrazi e'tibor markazida tura-sa, boshqa ahamiyatli o'rinlari ham talaygina. Avvalo, shohning aysh-ishratga berilishi oqibatlarini. Hikoyatda shoh Bahrom bosh obraz qilib olingan. Tarixga nazar tashlab bilamizki, shoh Bahrom yoki Varaxran I 421-438-yillarda Eronda hukmronlik qilgan sosoniylardan hisoblanadi. Uning sevgan mashg'uloti go'r (qulon) ovi bo'lganligi uchun ham Go'r laqabini olgan. Firdavsiyning "Shohnoma", Nizomiyning "Haft paykar", Hisrav Dehlaviyning "Hasht behisht" va Alisher Navoiyning "Sabbai sayyor" dostonlarida Bahromgo'r adolatli shoh, jasur sarkarda, ayni vaqtda maishatparast, xudbin shaxs sifatida tasvirlangan. O'qiganimiz hikoyatda ham shoh Bahrom dastlab, maishatparast shoh sifatida tasvirlangan. Shohning bu odati mamlakatning bosh toq bo'lishiga, vazirning yomonliklariga yo'l ochadi.

Yana bir e'tiborli jihati shundaki, vazir Rostiravshan bekka yozgan xatida "...elning yaxshilarini yo'q qildim, ishqqa yaramaslari qoldi..." degan so'zlari keltirilgan. Darhaqiqat, u zindonga solganlardan biri badavlat savdogar, biri saxiy boy, yana biri yengilmas bahodir edi. Mamlakatning taraqqiyoti, odamlarning farovon yashashi, sanoatning rivojlanishi va turmush tarzining o'sishi o'sha mamlakatda yashovchi ilg'or qatlamning ya'ni savdogarlar, boylar va ziyolilarning say-harakatiga bevosita bog'liqdir. Va bu bog'liqlik zamon, vaqt va makon tanlamaydi.

Endi vazir Rostiravshanning xiyonatiga to'xtalsak, uning ishi oddiygina xiyonat emas, Vataniga, podshohiga, birodarlariga nisbatan nonko'rlikdir. U xoin, zolim, ta'magir, ochko'z va makkor obraz sifatida namoyon bo'ladi. Hikoyatda cho'pon va uning iti bilan bog'liq voqea keltirilib, bu-vazirni qanday jazo kutayotganini anglatgan. Rostiravshan obrazi hikoyatning g'oyaviy-badiiy tizimida muhim o'rin tutadi.

Xulosa. Hikoyatdan ma'lum bo'ladiki, vazir dastlab podshoh ishonchiga sazovor bo'ladi, ammo keyinchalik aynan shu ishonchni suiiste'mol qila boshlaydi: "...podshoh ani e'tibor qilib erdi. Ul Rostiravshan xaloyiqg'a zulm qila boshladi...". Vazir zulmi natijasida iqtisodiy va ijtimoiy inqiroz yuzaga keladi: "...xaloyiq barcha ko'chib ketdi, el-yurt barchasi tarqaldi, shaharlar xarob, xazinaga mol kirmas bo'ldi...". U orqali muallif davlat boshqaruvida halollik, nazorat va adolat tamoyillarining zarurligini ta'kidlaydi. Obrazning fosh etilishi esa asarning asosiy g'oyasini "xiyonat va zulm muqarrar jazoga duchor bo'ladi" degan fikrni badiiy jihatdan asoslaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Пошшоҳўжа". УзССР давлат бадий адабиёт нашриёти. Тошкент-1962. Нашрга тайёрловчилар: В. ЗОХИДОВ, С. ГАНИЕВА
2. Марғуба Мирзаахмедова. "Хожа". Узбекистон сср "фан" нашриёти Тошкент-1975.
3. Nizomulmulik. Siyosatnoma. Toshkent-2023. Tarjimon - Shodmon Vohidov. "Trust and support". - 288.B
4. JALOLIDDIN RUMIY. MASNAVIY. "SHARQ" NASHRIYOT-MATBAA KONSERNI BOSH TAHRIRIYATI. TOSHKENT-1999.
5. Шавкат Раҳмон. САЙЛАНМА. «ШАРҚ» НАШРИЁТ-МАТБАА КОНСЕРНИ. Тошкент-1997. 123-бет.

